

O'QUV MOTIVATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI FAOLIYATIDAGI O'RNI

Jumayeva Guzal Xayriddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail: guzal.jmyva@yahoo.com

Ilmiy rahbar: Raximov Zokir Toshtemirovich

Renessans ta'lim universiteti professori

E-mail: raximovzokir@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada o'quv motivatsiyasi tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati yoritilib, uning boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. O'quv motivatsiyasining psixologik-pedagogik asoslari, ichki va tashqi motivlarning o'quv faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quv motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlar asoslab berildi. Olingan natijalar o'quv motivatsiyasini rivojlantirish ta'lim sifati va o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: o'quv motivatsiyasi, boshlang'ich ta'lim, bilish faoliyati, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, o'quv faoliyati.

Аннотация. В данной статье раскрывается научно-теоретическая сущность понятия учебной мотивации и анализируется её роль в учебной деятельности учащихся начальных классов. В ходе исследования рассмотрены психолого-педагогические основы учебной мотивации, влияние внутренних и внешних мотивов на учебную деятельность. Обоснованы эффективные педагогические подходы к формированию учебной мотивации в начальном образовании. Результаты исследования подтверждают, что развитие учебной мотивации является важным фактором повышения качества образования и познавательной активности учащихся.

Ключевые слова: учебная мотивация, начальное образование, познавательная деятельность, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, учебная деятельность.

Abstract. This article reveals the scientific and theoretical essence of the concept of learning motivation and analyzes its role in the educational activities of primary school students. The study examines the psychological and pedagogical foundations of learning motivation, as well as the influence of intrinsic and extrinsic motives on learning activities. Effective pedagogical approaches aimed at developing learning motivation in primary education are substantiated. The results indicate that

learning motivation is a key factor in improving educational quality and students' cognitive activity.

Key words: learning motivation, primary education, cognitive activity, intrinsic motivation, extrinsic motivation, learning activity.

KIRISH (Introduction). Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning bilish faolligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'limning ilk bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qishga munosabati, bilish jarayonlariga qiziqishi hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki ehtiyojining shakllanishi kelgusi ta'lim bosqichlari samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'quv motivatsiyasi muammosi pedagogika va pedagogik psixologiya fanlarining dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimi oldiga shaxsni intellektual, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Bu jarayonda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida o'quv motivatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'limning ilk bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati, bilish faoliyatiga qiziqishi va o'quv faoliyatida faol ishtirok etish istagi keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatni belgilab beruvchi muhim mezon hisoblanadi.

O'quv motivatsiyasi o'quv faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki va tashqi turtkilar tizimi bo'lib, u o'quvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi, maqsadga yo'nalganligi va ijtimoiy faolligini ifodalaydi [3]. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, boshlang'ich maktab yoshida o'quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida shakllanadi va aynan shu davrda o'quv motivatsiyasining asoslari qo'yiladi [1]. Agar mazkur bosqichda o'quvchida o'qishga nisbatan ijobiy, barqaror motivatsiya shakllantirilsa, u keyingi ta'lim bosqichlarida mustaqil bilim olishga qodir shaxs sifatida rivojlanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan esa o'quv motivatsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilab beruvchi asosiy psixologik-pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida o'quv motivatsiyasining o'rni, uning shakllanish xususiyatlari va ta'sir etuvchi omillarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

METODLAR (Methods). O'quv motivatsiyasi o'quv faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillar tizimi bo'lib, u o'quvchining bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi, maqsadga yo'nalganligi hamda ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasi shakllanishi shaxs rivojining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda o'qishga nisbatan

ijobiy yoki salbiy munosabat, barqaror o'quv motivlari va bilim olishga bo'lgan ichki intilishlar yuzaga keladi. Shu sababli mazkur davrda motivatsiyani to'g'ri yo'naltirish va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda o'quv motivatsiyasi tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, u psixologiyada shaxs faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida, pedagogikada esa ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi [2, 7, 8, 14, 15]. O'quv motivatsiyasi faqatgina bilimlarni o'zlashtirishga intilishni emas, balki o'quvchining ijtimoiy faolligi, o'z-o'zini anglashi, muvaffaqiyatga erishish istagi va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini ham qamrab oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun esa o'quv motivatsiyasi ko'p jihatdan emotsional ta'sirlar, o'qituvchining shaxsiy namunasi, o'quv faoliyatining qiziqarli tashkil etilishi va muvaffaqiyat hissi bilan uzviy bog'liqdir.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning psixik rivojlanishi, bilish jarayonlari (idrok, xotira, tafakkur, diqqat) va irodaviy sifatleri jadal shakllanadi [4, 5]. Ana shu jarayonda o'quv motivatsiyasi ushbu psixik funksiyalarning faollashuviga xizmat qiladi hamda o'quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Agar o'quvchida o'qishga nisbatan barqaror ijobiy motivatsiya shakllanmagan bo'lsa, ta'lim jarayoni formal tus oladi, bilimlar yuzaki o'zlashtiriladi va o'quv faoliyatiga nisbatan befarqlik yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida tashqi motivatsiya (baxo, rag'bat, maqtov, jazo) bilan bir qatorda ichki motivatsiyani (bilishga qiziqish, yangilikka intilish, mustaqillikka ehtiyoj) shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki ichki motivatsiya ustuvor bo'lgan holda o'quv faoliyati barqaror, mazmunli va uzoq muddatli samaraga ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan ta'lim mazmunini hayotiylik, qiziqarlilik va o'quvchining yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etishni talab qiladi.

O'quv motivatsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatining mazmuniy asosi bo'lib, u shaxsning ta'limga bo'lgan munosabatini, bilish faolligini va kelgusi ta'lim yo'lidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi [6]. Shu boisdan o'quv motivatsiyasi tushunchasini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, uning turlari, shakllanish omillari va boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida tutgan o'rnini o'rganish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin:

- Ilmiy-nazariy tahlil metodi – pedagogika va pedagogik psixologiya sohasidagi mahalliy va xorijiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar tahlil qilinishi;
- Tizimli yondashuv – o'quv motivatsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatining tarkibiy qismi sifatida yaxlit tizimda o'rganilishi;
- Qiyosiy tahlil – ichki va tashqi o'quv motivatsiyasi, an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinishi;

- Pedagogik kuzatuv – boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayonidagi faolligi, qiziqishi va munosabatlari tahlil etilishi;
- Tasniflash va umumlashtirish – o'quv motivatsiyasining turlari, shakllanish omillari va funksiyalari umumlashtirilishi kabilar.

Metodologiya shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuvlarga tayanadi. Bu yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv motivatsiyasini shakllantirishni nazarda tutadi. Xususan, tahlil va sintez metodlari orqali o'quv motivatsiyasi tushunchasining mazmuniy mohiyati ochib beriladi, uning tarkibiy qismlari va funksiyalari aniqlanadi. Induksiya va deduksiya metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida o'quv motivatsiyasining o'rni va ahamiyati haqida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida o'quv motivatsiyasi boshlang'ich ta'lim jarayonining yaxlit komponenti sifatida qaralib, uning ta'lim mazmuni, o'qituvchi faoliyati va o'quvchi shaxsiy xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan asoslanadi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida ichki va tashqi o'quv motivatsiyasi, an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi farqlar va umumiy jihatlar ochib beriladi. Mazkur nazariy tahlil shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatli yondashuvlar metodologiyasiga tayanadi.

NATIJALAR (Results). O'quv motivatsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Bilish faoliyatini rag'batlantirish – o'quv motivatsiyasi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- O'quv faoliyatini barqarorlashtirish – motivatsiya mavjud bo'lgan holda o'quv faoliyati izchil va mazmunli xarakter kasb etadi;
- Shaxsiy rivojlanishni ta'minlash – o'quv motivatsiyasi o'quvchining mustaqillik, mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish sifatlarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dastlab tashqi motivatsiya (maqtov, baho, rag'bat) ustun bo'ladi. Biroq pedagogik jarayon to'g'ri tashkil etilganda, tashqi motivatsiya ichki motivatsiyaga aylanib, o'quvchida bilim olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj shakllanadi [9].

Nazariy tahlil natijalari o'quv motivatsiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. O'quv motivatsiyasi o'quvchilarning bilish faolligini faollashtiruvchi, o'quv jarayoniga jalb etuvchi va ta'lim mazmunini anglab o'zlashtirishga yo'naltiruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Aniqlandiki, o'quv motivatsiyasi shakllangan holda o'quv faoliyati maqsadli, ongli va barqaror xarakter kasb etadi.

Nazariy jihatdan shu xulosaga kelindiki, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda asosan tashqi motivatsiya ustun bo'ladi. Biroq pedagogik jarayon to'g'ri yo'naltirilganda, tashqi rag'batlar ichki motivatsiyaga aylanib, o'quvchining bilim

olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji shakllanadi. Ichki motivatsiya esa o'quv faoliyatining samaradorligi va uzoq muddatli natijadorligini ta'minlaydi.

O'qituvchining pedagogik ta'siri, ta'lim mazmunining yosh xususiyatlariga mosligi, o'quv jarayonida o'yin va ijodiy elementlardan foydalanish o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy jihatdan asoslangan omillari ekanligi aniqlandi [12].

Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati, ta'lim mazmunining qiziqarliligi, o'quv jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish va muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim omillar ekanligi aniqlandi.

MUHOKAMA (Discussion). Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quv motivatsiyasini shakllantirish masalasi faqat ta'lim mazmuni bilan cheklanib qolmasdan, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni ham qamrab olishi zarur.

Agar o'quv motivatsiyasi yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, o'quv faoliyati formal tus oladi, bilimlar yuzaki o'zlashtiriladi va o'quvchida ta'limga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin. Shu boisdan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlari lozim [13].

O'quv motivatsiyasini shakllantirish uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo'lib, u ta'limning barcha komponentlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Xususan, faoliyat nazariyasiga ko'ra, har qanday faoliyat, jumladan o'quv faoliyati ham, motivatsion asosga ega bo'lgan taqdirdagina samarali amalga oshadi. Boshlang'ich maktab yoshida o'quv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida shakllanayotgani sababli, o'quv motivatsiyasining mazmunli va barqaror bo'lishi shaxs rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [10].

Agar o'quv motivatsiyasi yetarli darajada shakllantirilmasa, o'quv faoliyati faol tus olib, o'quvchi bilimlarni mexanik o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Bu esa uning bilish faolligi pasayishiga va ta'limga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik amaliyotda o'quv motivatsiyasini shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish nazariy jihatdan asosli hisoblanadi [11].

Shuningdek, muhokama natijasida o'quv motivatsiyasi faqat psixologik emas, balki ijtimoiy-pedagogik kategoriya ekanligi ham asoslandi. U o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, ta'lim muhiti va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

XULOSA (Conclusion). O'quv motivatsiyasi tushunchasining nazariy mohiyati ochib berildi hamda uning boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quv motivatsiyasi boshlang'ich ta'lim

samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u o'quvchining bilish faolligi, shaxsiy rivojlanishi va ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

Shuningdek, o'quv motivatsiyasini shakllantirishda o'qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Boshlang'ich sinflarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillarga tayangan holda shu xulosaga kelindiki, o'quv motivatsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatining mazmuniy asosini tashkil etadi hamda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil hisoblanadi. U o'quvchining bilish faolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va shaxsiy rivojlanishini rag'batlantiradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quv motivatsiyasini shakllantirish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, mazkur jarayon o'quvchining yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ichki motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Muhimi, o'quv motivatsiyasini nazariy jihatdan chuqur o'rganish va uning boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi o'rnini ilmiy asoslash zamonaviy pedagogik tadqiqotlar va ta'lim amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (References)

1. ВYGOTСКИЙ Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2011. С.14
2. Ryan R.M., Deci E.L. Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions. – Educational Psychology Review, 2000. P. 26.
3. Rakhimov Z.T. **Composition and Development Characteristics of Students' Academic Competence in Higher Education** / Z.T. Rakhimov // *Frontline Social Sciences and History Journal*. — 2023. — Vol. 3, Iss. 04. — P. 9–18. — DOI: 10.37547/social-fsshj-03-04-03.
4. Raximov Z.T. **O'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish oliy ta'limning muhim sharti sifatida** / Z.T. Raximov // *Journal of New Century Innovations*. — 2024. — Vol. 66, No. 1. — P. 133–139.
5. Rakhimov Z.T. **Development of students' learning-knowing competence in vocational education** / Z.T. Rakhimov // *Current Research Journal of Pedagogics*. — 2021. — Vol. 11. — P. 233–240.
6. Rakhimov Z.T. **The importance of biological and psychophysiological factors in the development of educational and cognitive activities** / Z.T. Rakhimov // *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. — 2021. — Vol. 11, Iss. 10. — P. 1614–1623.

7. Rakhimov Z.T. **Talabalar o'quv-bilish faoliyatini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmi** / Z.T. Rakhimov. — Toshkent : Voris, 2019. — 112 b.
8. Rakhimov Z.T. **Kasb ta'limining tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish** / Z.T. Rakhimov. — Qarshi : Intellekt, 2021. — 123 b.
9. Rakhimov Z.T. **Innovatsion yondashuv professional ta'lim tizimi rivojlanishining muhim omili sifatida** / Z.T. Rakhimov // *Ta'lim, fan va innovatsiya*. — Toshkent, 2021. — № 4. — B. 8–14.
10. Rakhimov Z.T. **Oliy kasbiy ta'limda talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari** / Z.T. Rakhimov // *Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari*. — Toshkent, 2021. — № 8. — B. 4–11.
11. Rakhimov Z.T. **O'quv-bilish faolligini faollashtirishga ta'sir etuvchi biologik va psixofiziologik omillar** / Z.T. Rakhimov // *Maktab va hayot*. — Toshkent, 2021. — № 6. — B. 24–27.
12. Rakhimov Z.T. **Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish kasb ta'limi jarayonining muhim vazifasi sifatida** / Z.T. Rakhimov // *Kasb-hunar ta'limi*. — Toshkent, 2021. — № 3. — B. 48–54.
13. Rakhimov Z.T. **O'quv-bilish kompetentligi kasb ta'limining tayanch kompetensiyasi sifatida** / Z.T. Rakhimov // *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*. — Toshkent, 2021. — № 6. — B. 58–70.
14. Слостёнин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2013. С. 44.
15. То'xtaxodjayeva М.Х. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 66-b.